

INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TARBIYA FANINI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI

H.B.Ismatova

Buxoro Davlat Universiteti Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi.

Eshonova Shaxnoza

BuxDU Pedagogika va psixalogiya ta'lim yonalishi 4-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11480384>

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalarini qo'llash, bu jarayonidagi interfaol metodlarning roli, tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: innovatsiya, ta'lim texnologiyalari, ta'lim metodlari, interfaol metodlar, pedagogik texnologiya, didaktik o'yinlar, an'anaviy dars, noan'anaviy dars.

THE TECHNOLOGIES OF TEACHING EDUCATION BASED ON INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

Abstract. This article explores the use of innovative technologies, the role of interactive methods in this process and the importance of applying innovative technologies in an education field.

Key words: innovation, educational technologies, educational methods, interactive methods, pedagogical technology, didactic games, traditional lesson, non-traditional lesson.

ОБРАЗОВАНИЕ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ТЕХНОЛОГИИ ПРЕПОДАВАНИЯ НАУКИ

Аннотация. В данной статье говорится об использовании инновационных технологий, роли интерактивных методов в этом процессе, важности использования инновационных технологий в образовательном процессе.

Ключевые слова: инновации, образовательные технологии, методы обучения, интерактивные методы, педагогическая технология, дидактические игры, традиционный урок, нетрадиционный урок.

Kirish.

Innovatsiya inglizcha yangilik kiritish; yangi ma'lum bir sohaga boshqa bir sohaning kirib borishi va shu sohada yangiliklarning paydo bo'lishi bilan ifodalanadi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonga, o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangiliklar kiritish, bu jarayonda

talabalarning mustaqil o'qib o'rganishlari orqali tadqiqotchilik ko'nikmalari shakllanishi, pedagogik jarayonlarni mustaqil o'qib tahlil qilishi hattoki xulosalar chiqarishga ham o'rgatiladi.

Innovatsion texnologiyalar tushunchasi interfaol metodlar bilan birgalikda yaxlit tushunchani hosil qiladi. Interfaol metodlar esa ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir talabaning erkin faol va mustaqil fikrlashiga, dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi.

Har bir fanning o'ziga xos texnologiyasi bo'lganidek ta'lim jarayonidagi pedagogik texnologiya-bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchi ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir. Pedagogik texnologiyani yana muayyan reja va loyihalar asosida ta'limning natijasini belgilab berish ham deyishimiz mumkin.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangiliklar hamda o'zgarishlar kiritish demakdir.

Mavzuni o'rganishning bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Mavzu va unga doir rejalar taqdim etiladi;
2. O'quv faoliyati natijalari eslatiladi;
3. Dars mavzusining naqadar ahamiyatliligi aytib o'tiladi;
4. Mavzuni tushuntirish ketma- ketligi texnologik loyihaga ko'ra o'qituvchining rejasiga muvofiq bo'lishi;
5. O'quvchilarning barchasini diqqatini jalb qila olishi hamda mavzuga mos muammoli vaziyatlar taqdim etilib o'quvchilarning fikrlarini o'rganish;
6. Mavzu bayon qilish barobarida o'quvchilarga tarqatma materiallar ham berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi;
7. O'quvchilarning mavzuga doir eng muhim gap va tayanch tushunchalarini eslatma uchun daftarlari yozib olishi lozim bo'ladi;
8. O'quvchilarning mavzuni qay darajada o'zlashtirganlarini tekshirish uchun o'qituvchi tomonidan og'zaki savollar berib boriladi (masalan, jamoada o'zini tutish odobi nima?)
9. O'quvchilar javoblari tinglanadi va o'qituvchi tomonidan to'ldirib boriladi, to'g'ri javoblarni bergan o'quvchilar rag'batlantiriladi;

Innovatsion texnologiyalar asosida dars jarayoni tashkil qilinar ekan bu darsning boshqa an'anaviy darslardan farqi darsda barcha o'quvchilarning faol qatnashishlari, ilg'or texnikaning eng so'nggi yutuqlaridan foydalangan holda dars o'tilishi, darsning o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tushunarli bo'lishi, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va turli vaziyatlarga to'g'ri baho berish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilinishi

ko'zda tutiladi. An'anaviy darslarda o'qituvchi dars jarayonida asosiy rol o'ynasa innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilingan darslarda o'quvchilarning roli sezilarli darajada oshadi.

O'qituvchi bu jarayonda yo'naltiruvchi va boshqaruvchi vazifasini bajaradi.

Tarbiya fanini tashkil etishda bir qancha zamonaviy innovatsion texnologiyalardan ham foydalansak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bular:

- O'qitishning masofaviy ta'lim texnologiyasi;
- O'qitishning elektron modulli texnologiyasi;
- Ustoz shogird texnologiyasi.

O'qitishning masofaviy ta'lim texnologiyasida nomidan anglashini turganidek ta'lim oluvchilar masofadan ta'lim olishadi. Bunda o'qituvchi pedagog tomonidan o'quvchilarning mustaqil ravishda bajarishi uchun vazifalar beriladi. Asosiy rolni esa o'quvchilarning o'zlari bajarishadi. Bu jarayonda o'qituvchi yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi xolos.

O'qitishning elektron modulli texnologiyasida texnologik vosita: kompyuter, planshet va boshqa elektron vositalar orqali ta'lim berishni o'z ichiga oladi. An'anaviy va noan'anaviy dars shakllarida birdek qo'llasak ham bo'ladi. Bu o'qitish turi ta'lim olishning maksimal jadal olib borish imkoniyatining mavjudligi, o'qilishning cheklanmaganligi va qulayligi bilan ajralib turadi.

Ustoz-shogird texnologiyasi. Bunda o'qituvchi tomonidan o'quvchiga tinimsiz ravishda vazifalar berib boriladi. Har bir iqtidorli o'quvchiga alohida o'qituvchilar birlashtiriladi va o'qituvchi individual tarzda o'quvchisi bilan ishlaydi. O'qitishning bu turi samarali natijalar beradi. Ta'limdagi innovatsiyalar quyidagi maqsadlarga erishishga yordam beradi:

Ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish;

Talabalarning kognitiv faolligini faollashtirish;

Ta'lim va tarbiya ishlarini tashkil etish samaradorligini oshirish

Bo'lajak o'qituvchi pedagoglar ongiga innovatsion texnologiyalarni singdirish muhim bo'lib hisoblanadi. Ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni shakllantirish uchun kerakli psixologik muhitni yaratadi olish, o'qituvchilarning o'zida ham kreativlikni rivojlantirish muhim bo'lib hisoblanadi.

Pedagogik innovatsiyalar sohasida bir qancha ishlar amalga oshirgan Zagvyanskiyning ta'kidlashicha yangilikni rivojlantirish natijasida ijobiy natijalarga erishgan holda, o'qituvchilar uni asossiz ravishda universallashtirishga, uni pedagogik amaliyotning barcha sohalariga tatbiq etishga intilayotganligini ta'minlaydi. Buning natijasida esa ularning faoliyati muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi va umidsizlikka tushib qolishadi.

Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida tarbiya fanini o'qitilinishi esao'qituvchining bilim, ko'nikma va malakasini zamonga xos holda uyg'unlikda olib borishi, qiziqarli dars mashg'ulotlarini tashkil qila bilmog'I asosida o'tkazilishi lozim. Pedagog ta'lim texnologiyalari asosida dars o'tar ekan texnik vositalar: kompyuter, elektron doska va videoproektorlardan foydalansa dars mashg'uloti yana qiziqarliroq bo'ladi va dars o'z maqsadida erishadi. Bundan tashqari bu turdagi darslarda o'quvchilar mustaqil tadqiqotchilik orqali yangi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar. O'quvchilar bu jarayonda kichik guruhlariga birlashib jamoada ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishlari ham mumkin. Hozirgi davrda darsning turli noan'anaviy turlari ham tashkil etilgan bo'lib bu hozirgi yoshlarning barkamol shaxs bo'lib shakllanishida, jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga muhim ahamiyatga egadir.

Ta'lim jarayonidagi innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar haqida muayyan bir to'xtamga kelinmagani sababli har bir mahoratli pedagog o'zining tajribasidan kelib chiqib ta'lim jarayoniga yangicha yondashishi hamda yangicha ta'lim metodini o'ylab topishi ham mumkin.

Xususan ta'lim metodlari o'qituvchining o'z ustida ishlashi hamda tinimsiz rivojlanib borishi asosida tarkib topadi.

Tarbiya fanini o'qitishda didaktik o'yinlarni qo'llash ham yaxshi samara beradi. Bu turdagi o'yinlar asosan o'quvchilarda ixtiyoriy diqqat hamda xotirani rivojlantiradi.

O'quvchilar o'zlari bilmagan holda miyalarini ishlashga majbur qilishadi, turli masalalarni hal qilishadi. Didaktik o'yinlarning asosiy mazmuni shaxs ongida nazariy bilimlarni rivojlantirish va chuqurlashtirish, egallagan nazariy bilimlarni amaliyotda mustaqil hamda samarali qo'llash, ijtimoiy faollikni shakllantirishda iboratdir.

Xulosa.

Hozirgi kundagi ta'lim tizimida o'qituvchining bosh vazifasi o'quvchilarga fanning mazmunini aniq va tiniq qilib yetkazib berishdan iboratdir. Bu jarayonda ta'lim oluvchilarning eng muhim vazifalari nazariy bilimlarni o'rganib amaliyotda qo'llay olish ko'nikma va malakalriga ega bo'lishdan iboratdir. Bu jarayonda davlatning eng muhim vazifasi jamiyatga erkin fikrlay oladigan va har sohada tashabbuskor, kreativ shaxsni yetkazib berishdir. Shuning uchun ham tarbiya darslarini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilinsa ta'limning samaradorligi yanada yuqoriroq bo'lar edi.

REFERENCES

1. Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. I Monografiya. - T.: «Fan va texnologiyalar», 2016. -77-b.

2. Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. I Monografiya. - T.: «Fan va texnologiyalar», 2016. -77-b.
3. Panfilova A.P. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: Faol o'rganish: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / A.P. Panfilov. - M., Akademiya, 2009 y.
4. Panfilova A.P. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: Faol o'rganish: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / A.P. Panfilov. - M., Akademiya, 2009 y.
5. Umarova Tarbiya fanini o'qitishda didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasi
6. xs.uz sayti
7. lex.uz sayti
8. [WWW.my shared.ru](http://WWW.myshared.ru)